

OTA FIDOYILIGI**Urazboyeva Feruza Alisher qizi****Xorazm viloyati Yangibozor tuman 1-son texnikumi psixologi****E-mail: urazboyevaferuza90@gmail.com****+998948819599****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18677227>**

Ota ismi Alisher edi. U balandparvoz gaplarni yoqtirmas, hayotni jim va sabr bilan ko'tarib yuradigan insonlardan edi. Uning qo'llari dag'al, kaftlari yorilgan, ko'zlari esa doim bir nuqtaga tikilib turardi — go'yoki ichida bitmas-tuganmas o'ylar bor edi. U hayotdan boylik ham, hashamat ham kutmadi. Uning yagona orzusi bor edi: qizining kelajagi porloq bo'lishi. Qizi maktabni a'lo baholar bilan tugatdi. Davlat oliygohiga hujjat topshirilgan kunlardan boshlab, har tong saharda duo qildi. Natija e'lon qilingan kuni esa yuragi ko'ksiga sig'may ketdi. Qizi o'qishga kirolmadi. O'sha kuni u ichida ming marta sinib, bir marta ham sezdirmadi.

— Yig'lama, qizim. Bu hali hayotning oxiri emas, — dedi u.

Shundan so'ng u qizini Qozog'istonda o'qitishga qaror qiladi. Bu qaror uning hayotidagi eng og'ir, ammo eng sharaflı qaror edi. Besh yil davomida u sovuqda ham, issiqda ham mehnat qildi. Eski kiyimda yurdi, sog'lig'ini ortga surdi, lekin qizining kontrakt pulini kechiktirmadi.

Har safar qizi:

— Dada, hammasi yaxshi, — deganida, u uning sog'inchini sezardi, ammo kuchli bo'lishga majbur edi.

Besh yil o'tib, qizi diplom bilan qaytdi.

— Dada, men uddaladim, — dedi u ko'zlari yoshga to'lib. Alisher jim yig'ladi.

Bu ko'z yoshlarda charchoq ham bor edi, faxr ham bor edi. U o'z umrini qizining kelajagiga almashtirdi. Va bu almashuvdan hech qachon afsuslanmadi.

QIZINING DILIDAN MINNATDORCHILIK

Dada...

Bugun qo'limda diplom bor. Ammo men yaxshi bilaman — bu diplom faqat mening emas. Unda sizning yorilgan kaftlaringiz, sovuqda muzlagan qo'llaringiz, kechalari uxlamay o'ylagan tashvishlaringiz bor. Davlat oliygohiga kirolmagan kunimni eslayman. Siz o'sha kuni ichingizda ming marta sinib, bir marta ham sezdirmagansiz. Qozog'istonga ketayotgan kunim vokzaldagi nigohingizni unutmayman. Men kuchli bo'lishga harakat qildim, lekin yuragim siz tomonda qolib ketgandi. Har oy yuborgan pulingiz ortida qancha mehnat borligini endi tushunyapman.

Dada, men sizdan qarzdorman.

Agar vaqtni ortga qaytara olganimda, yana o'sha yiqilgan kunimni tanlardim. Chunki o'sha yiqilish meni sizning naqadar buyuk dada ekaningizni ko'rsatdi. Dada... agar bir kun yelkangiz charchab qolsa, endi navbat meniki. Endi siz suyanadigan tayanch men bo'laman. Siz meni hayotda qanday yashash kerakligiga o'rgatgan buyuk dadasiz. Endi esa biling — har bir nafasimda sizni duo qilaman.

Qizingiz. Feruza